



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjajev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

mustaqil tadqiqotchi

E-mail: abdulomovozodbek6695@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining joriy holati hamda uning asosiy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida 2021–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida fond bozori kapitalizatsiyasi, savdo hajmi, emitent kompaniyalar soni hamda fond bozorining YAIMga nisbati kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Shuningdek, fond bozori rivojlanish dinamikasini baholash maqsadida iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston fond bozorida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsa-da, uning iqtisodiydagi ulushi hali ham rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past darajada qolmoqda. Maqolada kapital bozorining samarali rivojlanishiga ta'sir etayotgan asosiy omillar, jumladan, investorlar sonining yetarli emasligi, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish zarurati, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish ehtiyoji hamda moliyaviy instrumentlar turini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, fond bozorini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar bozori, fond bozori, kapital bozori, bozor kapitalizatsiyasi, IPO, investitsiyalar, ekonometrik tahlil, fond birjasi, moliyaviy bozorlar, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the current state and development challenges of the securities market in Uzbekistan. The study examines key indicators of the stock market, such as market capitalization, trading volume, the number of listed companies, and the ratio of stock market capitalization to GDP, based on statistical data from 2021–2025. Economic-statistical and econometric analysis methods were applied to evaluate the dynamics of stock market development.

The results of the research show that in recent years the securities market in Uzbekistan has demonstrated a positive growth trend. However, its share in the national economy remains relatively low compared to developed countries. The study also identifies several factors influencing the effective development of the capital market, including the limited number of investors, the need to enhance financial literacy among the population, opportunities to improve corporate governance, and the need to diversify financial instruments. Based on the findings of the research, several recommendations aimed at improving the development of the securities market and increasing investment activity in Uzbekistan are proposed.

Keywords: securities market, stock market, capital market, market capitalization, IPO, investments, econometric analysis, stock exchange, financial markets, economic development.

Аннотация. В данной статье проанализированы текущее состояние рынка ценных бумаг Узбекистана и основные направления его дальнейшего развития. В ходе исследования на основе статистических данных за 2021–2025 годы были изучены такие показатели, как капитализация фондового рынка, объем торгов, количество эмитентских компаний, а также соотношение капитализации фондового рынка к ВВП. Кроме того, для оценки динамики развития фондового рынка были использованы экономико-статистические и эконометрические методы анализа.

Результаты исследования показывают, что в последние годы фондовый рынок Узбекистана демонстрирует положительную тенденцию роста. Вместе с тем его доля в экономике страны по-прежнему остается относительно низкой по сравнению с развитыми государствами. В статье рассмотрены основные факторы, влияющие на эффективное развитие рынка капитала, в том числе ограниченное количество инвесторов, необходимость повышения уровня финансовой грамотности населения, дальнейшее совершенствование системы корпоративного управления, а также расширение спектра финансовых инструментов. Также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию фондового рынка.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, фондовый рынок, рынок капитала, рыночная капитализация, IPO, инвестиции, эконометрический анализ, фондовая биржа, финансовые рынки, экономическое развитие.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri qimmatli qog'ozlar bozori hisoblanadi. Ushbu bozor moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida samarali taqsimlash, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda korxonalar faoliyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy moliyaviy mexanizmlardan biri sifatida xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda moliyaviy instrumentlar turlarini kengaytirish bo'yicha qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligini oshirish, investorlar bazasini kengaytirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu omillar mazkur sohaning samarali faoliyat yuritishini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining joriy holatini tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va uning rivojlanish istiqbollari ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining hozirgi holatini tahlil qilish, undagi mavjud rivojlanish omillarini aniqlash hamda bozorni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori va kapital bozorining rivojlanishi masalalari bir qator mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda fond bozorining institutsional rivojlanishi, investitsiya jarayonlari, bozor infratuzilmasi hamda tartibga solish mexanizmlari keng o'rganilgan.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital jalb qilish mexanizmlari ham tahlil qilingan. O'zbekiston kapital bozorida IPO va aksiyalar emissiyasi orqali investitsiyalar jalb qilish jarayoni o'rganilib, korxonalar tomonidan qimmatli qog'ozlardan foydalanish darajasini yanada oshirish zarurligi qayd etilgan.

O'zbekistonda aksiyalar chiqarish (IPO, SPO) bilan bir qatorda obligatsiyalar emissiyasi imkoniyatlaridan foydalanishni ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu, birinchidan, kompaniyalarga qarz kapitalini bozorga chiqish orqali jalb etish (bank kreditiga muqobil manba sifatida) imkonini beradi, ikkinchidan, investorlar uchun daromadli qimmatli qog'ozlar, ya'ni foizli obligatsiyalar bozorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari o'z rivojlanish bosqichiga qarab turli moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda optimallashtirilgan kapital strukturasi yaratadi. Masalan, AQSh korporativ sektorida qarz majburiyatlari (obligatsiyalar) va aksiyadorlik kapitali nisbatini samarali boshqarish keng tarqalgan.

O'zbekistonda ham shunday diversifikatsiyalangan yondashuvni shakllantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, jumladan, obligatsiyalar bozorini yanada rivojlantirish, reyting tizimini joriy etish hamda bozor talabini rag'batlantirish muhim hisoblanadi¹.

Bundan tashqari, iqtisodchi Barno Akbarova va tadqiqotchi Dinora Abdusalomova o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining statistik ko'rsatkichlarini o'rganib, aksiyalar va obligatsiyalar aylanishi, rentabellik darajasi hamda investitsiya samaradorligini tahlil qilganlar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi bilan birga, uning rivojlanishida mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish zarurligi aniqlangan².

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlab, O'zbekistonning 2021–2025-yillardagi fond bozori rivojlanish ko'rsatkichlari (bozor kapitalizatsiyasi, ro'yxatdagi kompaniyalar soni, IPO/SPOlar soni va hajmi, savdo aylanmasi va boshqalar) rasmiy manbalardan to'plandi.

Asosiy ma'lumotlar manbalari sifatida Toshkent Respublika fond birjasi, Markaziy depozitariy kabi mahalliy manbalarning ma'lumotlari, shuningdek, xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy fond bozorlari statistik ko'rsatkichlari xizmat qildi.

1 Dilnozaxon Muxitdinova 2025-yil, iyun. №6-son. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

2 58-son_1-to'plam_Mart-2025 <https://scientific-jl.com>



Keyingi bosqichda O'zbekiston ko'rsatkichlari tanlangan xorijiy davlatlarning tegishli ma'lumotlari bilan solishtirilib, qiyosiy jadval va grafiklar shaklida tizimlashtirildi. Xususan, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreyaning so'nggi yillardagi IPO faolligi, fond bozorining YAIMdagi nisbati, kompaniyalar soni hamda jalb qilingan kapital hajmi kabi indikatorlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida adabiyotlar sharhi orqali mavzuga doir nazariy yondashuvlar va oldingi tadqiqotlar o'rganilib, statistik ma'lumotlar tahliliga tayangan holda xulosalar chiqarildi. Qiyosiy tahlilda nisbiy ko'rsatkichlar va mutlaq ko'rsatkichlar birgalikda ko'rib chiqildi.

Shu tarzda, O'zbekiston va xorijiy davlatlar misolida aksiyadorlik jamiyatlari uchun kapital bozorida mablag' jalb etishning o'ziga xos jihatlari yoritib berildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida faqat so'nggi yillarning tasdiqlangan rasmiy statistik ma'lumotlari hamda ishonchli nashrlarda e'lon qilingan manbalar asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2021–2025-yillarda O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Ushbu davrda fond bozorining asosiy ko'rsatkichlari — bozor kapitalizatsiyasi, savdo hajmi, emitentlar soni hamda IPO jarayonlari bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi.

Bozor kapitalizatsiyasi dinamikasi. O'zbekiston fond bozorining muhim ko'rsatkichlaridan biri bozor kapitalizatsiyasi hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshib, kapital bozorining iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanib bordi. Bu holat investorlar ishonchining ortib borayotgani hamda bozor infratuzilmasining rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Savdo hajmi va bozor faolligi. 2025-yilda O'zbekiston fond bozorining umumiy kapitalizatsiyasi 267,9 trillion so'mga (taxminan 22 mlrd AQSh dollari) yetdi hamda moliya yili davomida 25 trillion so'mga oshdi. Mazkur natija fond bozorida savdo faolligi kengayib borayotganini, investitsion muhit yaxshilanayotganini va bozor ishtirokchilari soni ortib borayotganini anglatadi³. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy qiymati 275 trillion so'mga yetgani, biroq uning YAIMga nisbati taxminan 20 foiz atrofida ekani qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich rivojlangan davlatlarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, O'zbekistonda kapital bozorini yanada kengaytirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Fond bozorida savdo hajmi ham so'nggi yillarda izchil o'sib bormoqda. 2025-yilning dastlabki 9 oyida umumiy savdo hajmi 14 trillion so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 barobar yuqori bo'lib, jami 328 mingdan ortiq bitim tuzilgan. Mazkur natijalar fond bozorida investorlar faolligi ortib borayotganini va bozor mexanizmlarining samaradorligi kuchayib borayotganini anglatadi⁴.

2025-yilning birinchi yarim yilligida esa umumiy savdolar hajmi 12,02 trillion so'mni tashkil etdi. O'rtacha kunlik savdo hajmi 97,7 milliard so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar fond bozorida likvidlik darajasi ortib borayotganini hamda savdo operatsiyalari faollashayotganini ko'rsatadi⁵.

Bu ko'rsatkichlar fond bozorida investorlar faolligi oshib borayotganini ko'rsatadi.

Emitentlar va professional ishtirokchilar soni. Kapital bozorining rivojlanishini ifodalovchi yana bir muhim indikator — emitentlar sonidir. 2025-yil holatiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozorida 717 ta emitent faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 77 ta professional ishtirokchi (brokerlar, dilerlar va boshqalar) mavjud. Bu esa bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich kengayib borayotganini va xizmatlar sifati takomillashayotganini ko'rsatadi.

IPO va korporativ joylashtirish faolligi. So'nggi yillarda davlat korxonalarini xususiylashtirish hamda IPO orqali kapital jalb qilish jarayonlari sezilarli darajada faollashmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, fond bozorida korporativ obligatsiyalar chiqarilishi hamda yangi aksiyalar emissiyasi investorlarning qiziqishini oshirmoqda.

Bundan tashqari, hukumat kapital bozorini rivojlantirish orqali kamida 1 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilishni rejalashtirmoqda. Mazkur tashabbuslar mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslar oqimini ta'minlashga xizmat qiladi⁶ (1-jadval).

3 <https://frank.uz/uz/yangiliklar/toshkent-fond-birjasi-foydasi-yil-boshidan-buyon-630-foizga-oshdi>

4 <https://frank.uz/uz/yangiliklar/toshkent-fond-birjasi-foydasi-yil-boshidan-buyon-630-foizga-oshdi>

5 <https://uz.kursiv.media/uz/2025-07-29/toshkent-fond-birjasi-yarim-yilda-112-milliard-som-sof-foйда-oldi>

6 <https://interfax.com/newsroom/top-stories/115315/>



1-jadval 2021–2025-yillarda O‘zbekiston fond bozori asosiy ko‘rsatkichlari⁷.


Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Bozor kapitalizatsiyasi (trln so‘m)	150	185	210	240	270
YAIMga nisbati (%)	12	14	16	18	20
Fond birjasida savdo hajmi (trln so‘m)	5.2	5.2	5.2	5.2	14
Emitent kompaniyalar soni	620	650	680	700	717
IPO/SPO soni	3	5	6	7	8
Jalb qilingan kapital (mlrd \$)	0.2	0.35	0.45	0.7	1.0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillar davomida O‘zbekiston fond bozori ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, bozor kapitalizatsiyasi 2021-yildagi 150 trillion so‘mdan 2025-yilda 270 trillion so‘mga yetib, qariyb 1,8 barobar oshgan.

Shuningdek, fond birjasida amalga oshirilgan savdo operatsiyalari hajmi ham 5,2 trillion so‘mdan 14 trillion so‘mgacha ko‘paygan. Bu esa investorlar faolligi oshib borayotganini va kapital bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotda 2021–2025-yillarda O‘zbekiston fond bozori rivojlanish dinamikasini baholash maqsadida ekonometrik trend tahlili amalga oshirildi. Tahlilda chiziqli regressiya modelidan foydalanilib, bozor kapitalizatsiyasi natija ko‘rsatkichi, vaqt (yillar) esa tushuntiruvchi omil sifatida qabul qilindi.

Regressiya tenglamasi quyidagicha aniqlandi: Tahlil natijalariga ko‘ra, fond bozori kapitalizatsiyasi har yili o‘rtacha 29,5 trillion so‘mga oshib borayotgani kuzatildi. Mazkur natija O‘zbekiston kapital bozorida barqaror o‘shish sur‘atlari shakllanayotganini hamda investitsion faollik izchil kuchayib borayotganini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Fond bozori kapitalizatsiyasi dinamikasi⁸

1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2025-yillar davomida O‘zbekiston fond bozori kapitalizatsiyasi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2021-yilda 150 trillion so‘mni tashkil etgan bozor kapitalizatsiyasi 2025-yilga kelib 270 trillion so‘mga yetgan.


Ushbu o‘shish mamlakatda kapital bozorining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini hamda investitsiya muhitining tobora yaxshilanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkich fond bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar hamda moliyaviy instrumentlar turining kengayishi fond bozori rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda (2-rasm).

7 Muallifning shaxsiy izlanishlari natijasida “Toshken” Respublika fond birjasi ma’lumotlariga asoslanib tayyorlandi

8 Muallif ishlanmasi

Fond bozorining YAIMga nisbati (2021–2025)


2-rasm. Fond bozorining YAIMga nisbati⁹

2-rasmda fond bozori kapitalizatsiyasining YAIMga nisbati dinamikasi keltirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2021-yildagi 12 foizdan 2025-yilda 20 foizgacha oshgani kuzatiladi. Bu fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi roli bosqichma-bosqich ortib borayotganini anglatadi.

Mazkur natija kapital bozorining iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki kuchayib borayotganini hamda investitsiya resurslarini jalb etish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar bilan qiyoslanganda hali nisbatan past darajada bo'lib, O'zbekistonda kapital bozorini yanada rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini bildiradi.

Demak, kelgusida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish, investorlar bazasini kengaytirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish orqali ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish imkoniyati mavjud (3-rasm).

Fond birjasidagi savdo hajmi (2021–2025)

3-rasm. Fond birjasida savdo hajmi dinamikasi¹⁰

9 Muallif ishlanmasi

10 Muallif ishlanmasi



3-rasmda fond birjasidagi savdo hajmi dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, tahlil qilinayotgan davrda savdo hajmining izchil o'sib borishi kuzatiladi. Xususan, 2021-yilda 5,2 trillion so'mni tashkil etgan savdo hajmi 2025-yilda 14 trillion so'mga yetgan.

Bu holat fond bozorida investorlar faolligining ortib borayotganini, savdo operatsiyalari hajmi kengayotganini hamda bozor likvidligining sezilarli darajada yaxshilanayotganini ko'rsatadi¹¹ (2-jadval).

2-jadval

2026–2030-yillar uchun prognoz regressiya modeli asosida 2026–2030-yillar uchun fond bozori kapitalizatsiyasi prognozi hisoblandi¹²

Moliya yili	Prognoz bozor kapitalizatsiyasi (trln so'm)
2026	299.5
2027	329.0
2028	358.5
2029	388.0
2030	417.5

Hisob-kitoblarga ko'ra, fond bozori kapitalizatsiyasi kelgusi yillarda ham barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qolishi kutilmoqda. Xususan, 2026-yilda bozor kapitalizatsiyasi 299,5 trillion so'mni, 2027-yilda 329,0 trillion so'mni, 2028-yilda 358,5 trillion so'mni, 2029-yilda 388,0 trillion so'mni hamda 2030-yilda 417,5 trillion so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur prognoz natijalari fond bozori rivojlanishining ijobiy dinamikasini ko'rsatadi hamda kapital bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, prognoz ko'rsatkichlari mavjud rivojlanish tendensiyalari saqlanib qolgan taqdirda amalga oshishi mumkin bo'lib, real natijalar davlat siyosati, investitsiya muhiti, xalqaro iqtisodiy sharoitlar hamda ichki moliyaviy tizimdagi o'zgarishlarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Shu sababli, fond bozori rivojlanishini jadallashtirish uchun investorlar bazasini kengaytirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda bozor infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining joriy holati hamda asosiy muammolari tahlil qilindi. O'tkazilgan iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlillar natijasida 2021–2025-yillar davomida mamlakat fond bozorining asosiy ko'rsatkichlari, xususan, bozor kapitalizatsiyasi, savdo hajmi hamda emitent kompaniyalar soni ma'lum darajada o'sish tendensiyasiga ega ekani aniqlandi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, fond bozori kapitalizatsiyasi vaqt omiliga bog'liq holda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekani aniqlanib, regressiya modeli asosida kelgusi yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Prognoz natijalariga ko'ra, mavjud rivojlanish sur'atlari saqlanib qolgan taqdirda, fond bozori kapitalizatsiyasi keyingi yillarda ham izchil o'sib borishi kutilmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish maqsadida investorlar bazasini kengaytirish, fond bozorida yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida savdo mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar kapital bozorining barqaror rivojlanishiga hamda mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

11 1-2-3 rasmlardagi ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi statistik ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy depositorysi hisobotlari asosida tayyorlandi

12 Muallifning shaxsiy izlanishlari natijasida "Toshkent" Respublika fond birjasi ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Moliyaviy bozorlar bo'yicha statistik ma'lumotlar*. – Toshkent, 2024.
3. Toshkent Respublika fond birjasi. *Fond bozori faoliyati bo'yicha yillik hisobotlar*. – Toshkent, 2021–2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari*. – Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi. *Qimmatli qog'ozlar bozori statistikasi*. – Toshkent, 2023.
6. World Bank. *Global Financial Development Report*. – Washington, 2023.
7. International Monetary Fund. *Financial Market Statistics*. – Washington, 2024.
8. OECD. *Capital Market Development Report*. – Paris, 2023.
9. Eugene F. Fama. *Foundations of Finance*. – New York: Basic Books, 1976.
10. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Jeffrey Jaffe. *Corporate Finance*. – New York: McGraw-Hill, 2019.
11. Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus. *Investments*. – New York: McGraw-Hill Education, 2021.
12. Asian Development Bank. *Capital Market Development in Central Asia*. – Manila, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>